

KOREYA RESPUBLIKASI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

U.X.Safarov, TDPU dotsenti,
M.Karakulov, TDPU katta o'qituvchisi,
U.S.Ubaydullayev, TDPU 4-kurs talabasi.

Abstract: Today the country is one of the most developed countries in the world. The economy of the Republic of Korea is based on high technology and convenient infrastructure, and Korean companies such as Samsung, LG, Hyundai-Kia specialize in the production of electronics, cars, ships, machines and robots.

The foreign trade turnover of the Republic of Korea is \$1.084 billion. Of this, 558.8 billion US dollars are exports, 525.2 billion US dollars are imports.

Keywords: Republic of Korea, South Korea, Joseon, Goguryeo, Baekje, DPRK (North Korea), UN, WTO, OECD, APEC, Samsung, LG, Hyundai-Kia.

Koreya Respublikasi (norasmiy nomi: Janubiy Koreya) Osiyo sharqida ya'ni Koreya yarimorolining janubiy qismida joylashgan mamlakat (1-rasm). U shimol tomondan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (Shimoliy Koreya) bilan chegaradosh, qolgan uch tomonini suvlik (Sariq va Yapon dengiz suvlari) o'rab turadi. Mamlakatning poytaxti - Seul shahri (aholisi 10 mln kishi); davlat tuzumi unitar respublika; diniy tarkibi Buddizm, Konfutsizm, Xristian; davlat tili koreys tili; pul birligi Janubiy Koreya voni; mustaqillik kuni 1948-yil 15-avgust; shiori - "Insoniyat taraqqiyoti yo'lida".

Koreya Respublikasi ma'muriy-hududiy jihatdan 9 ta provinsiya, 2 ta markazga bo'ysinuvchi shahar, 1 ta maxsus maqomga ega shahardan iborat.



1-rasm-karta. Koreya yarimorolining umumiy ko'rinish kartasi. Shimolida KXDR (Shimoliy Koreya, janubda Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya).

Koreya hududida eramizdan avvalgi 1122-yilda birinchi davlatchilik ko‘rinishi “Choson” shakllangan. Keyinroq ya’ni, eramizning boshlarida “Goguryo”, “Pekche” kabi davlatchilik paydo bo‘lgan. Eramizning 900-936 yillarida yuqoridagi davlatchiliklarning barchasi “Koryo” qo‘l ostida birlashuvi yuz berdi. Ushbu davlatchilik 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylandi. Ikkinchi jahon urushida Yaponiyaning mag‘lubiyati tufayli Koreyaning hududi Sobiq Ittifoq va AQShning ta’siri tufayli ikki davlatning paydo bo‘lishiga olib keldi. 1948-yilda rasman Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) va KXDR (Shimoliy Koreya) davlatlari tashkil topdi.

Koreya Respublikasi umumiy yer maydoni 99 392 km² ni tashkil etadi.

Koreya yarimorolining uzun tog‘ tizmalaridan Tebeksan tog‘ zanjiri sharqiy qirg‘oq bo‘ylab 1100 km.ga cho‘zilgan. Koreya yarimoroli janubiy qismida katta va kichik daryolar oqadi. Ushbu suv arteriyalari koreyslar hayot tarzi va mamlakatini sanoatlashitirishda muhim ro‘l egallaydi. Koreyaning eng katta ikki daryosi - bu Naktongkang (525 km.) va Koreya poytaxti Seuldan oqib o‘tadigan Hankang (494 km.).

Koreya iqlimi - mo‘tadil, bir-biridan keskin farq qiladigan to‘rt faslga ega. Bahor qisqa bo‘lishiga qaramasdan juda ham yoqimli va quyoshli bo‘ladi. Yozda esa issiq va namlik yuqori bo‘lib, iyul oylarida yomg‘irga boy bo‘ladi. Kuz fasli yorqin tilla va qizil ranglar bilan bo‘yalib ajoyib rang-barang panoramani yaratadi. Qish sovuq va quruq kelib vaqti-vaqti bilan qor yog‘adi. Koreyslarning yil fasllari orasida sevimlisi bo‘lgan kuz fasli odamni tetiklashtiradigan havo va musaffo osmonga ega bo‘ladi. Kuz – hosillarni yig‘ishtirish vaqti hamda turli bayram va tarixiy an‘analarga boy fasl.

Bugungi kunda mamlakat dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biridir. Lekin rivojlanishga bo‘lgan yo‘l oson bo‘lmagan. Bu yo‘lga erishish turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishni talab etdi. 1945-yili Yaponiya qaramligidan ozod bo‘lganidan so‘ng milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xalqning hayot-mamot masalasiga aylandi. Tabiiy boyliklarning cheklanganligi, ichki bozorning zaifligi va iqtisodiy rivojlanish tajribasiga ega bo‘lmashligiga qaramay, Koreya milliy iqtisodiyotning barqaror va mustaqil rivojlanishini amalga oshirdi.

O‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish sohasida o‘z yo‘lini topti, asosan avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash, elektronika, kemasozlik, tekstil va po‘latni qayta ishlash sohalari bunga misol bo‘la oladi.

Koreya Respublikasining rivojlanish bosqichlarida yuz bergan asosiy o‘zgarishlar: 1955-yildan boshlab agrar islohat, savodsizlikka qarshi kurash davri, 1960-yildan industrlashuv boshlandi – to‘qimachilik, poyabzal, yog‘ochga ishlov berish, un tortish, shakar ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlandi. 1970-yildan boshlab og‘ir sanoat tarmoqlari – metallurgiya, mashinasozlik, kimyo rivojlantirildi. 1980-yildan industrlashtirish davom ettirilib, atom energetikasi, avtomobilsozlik, kemasozlik tarmoqlari rivojlantirildi. 1990-yildan boshlab postindustrial rivojlanish bosqichiga o‘tish uchun harakat boshlandi.

Koreya Respublikasi iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar va qulay infratizimga asoslangan bo‘lib, “DAEWOO”, Samsung”, “LG”, “Hyundai-Kia” kabi koreys shirkatlari elektronika, avtomobil, kema, mashina va robotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Jumladan, Elektronika va elektrotexnika, avtomobilsozlik,

to'qimachilik sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlandi. Asosiy mashinasozlik tarmoqlari: Elektronika va elektrotexnika, avtomobilsozlik, kemasozlik, asbob-uskunasoziqlikda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Koreyaning uch tomonini yuvib turuvchi dengizlar ham koreys aholisi hayotida uzoq davrlardan beri muhim o'rin tutib keldi. Shuning uchun ham dengiz xo'jaligi va kemasozlik sanoati bu hududda keng va tez rivojlandi.

Koreya Respublikasi asosiy brend belgilari: (2-rasm).



2-rasm. Koreya Respublikasi asosiy brend belgilari

Koreya Respublikasi qishloq xo'jaligida ham ancha ilg'or mamlakat hisoblanadi. Dehqonchilikning sholichilik, texnik ekinlar yetishtirish, bog'dorchilik tarmog'i yaxshi rivojlangan. Chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik (1,9 mln. bosh), cho'chqachilik (8,7 mln. bosh), parrandachilik (102 mln. dona), baliqchilik asosiy o'rin tutadi.

Koreya Respublikasida avtomobil yo'llari uzunligi 97252 km, temir yo'llari uzunligi 6240 km. ni tashkil etadi. Unda 109 ta aeroportlar, 535 ta dengiz kemalari to'xtash portlari mavjud. Yirik portlari: Chinxe, Inchxon, Kunsan, Masan, Pusan va boshqalar.

Koreya Respublikasi aholi soni 01.01.2022 yilda 51 814 400 nafarni tashkil qildi. Aholi zichlik darajasi har 1 km² ga 494 kishi to'g'ri keladi. Janubiy Koreya aholisining katta qismini (99,9%) koreyslar tashkil etadi. Deyarli hamma koreys tilida so'zlashadi, maktablarda ikkinchi til o'laroq ingliz, yapon, xitoy, olmon va boshqa tillar o'rgatiladi.

Janubiy Koreyalik aholi o'rtacha 82 yil umr ko'rishadi. Urbanizatsiya darajasi (83%) juda yuqori.

Mamlakat ta'limi ilg'or mamlakatlardan biri bo'lib, aholisi ilmiy savodxonlik darajasi bo'yicha jahonda birinchi, matematik savodxonlik bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi.

Koreya Respublikasi bayramlari: 1-oyning 1-kuni Koreya Yangi yili kuni; 1- mart - Koreya mustaqilligi e'lon qilingan kun. Ya'ni 1919-yil 1-mart kuni Mustaqillik deklaratsiyasini e'lon qilgan kun; 5-may -Bolalar kuni. 1922-yilda bolalar yozuvchisi Pan Djon Xvan tashabbusi bilan belgilangan bo'lib, 1961-yildan buyon rasmiy nishonlanadi; 4-oyning 8-kuni - Budda tavallud kuni; 6 iyun - Xotira kuni. Mustaqillik uchun kurashishda va harbiy xizmatda vafot etganlar uchun bag'ishlangan; 17-iyul - Konstitutsiya kuni, 1948-yilda Koreya respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun deb belgilangan; 15 avgust - Ozodlik kuni (Koreya), 1948-yil 15-avgustda Koreya Respublikasi tashkil topgan kun deb e'lon qilingan; 8-oyning 15-kuni - Chxusok ya'ni Ajdodlarni xotirlash va hosil bayrami;

3-oktabr - Mamlakatga asos solingan kun. Eramizdan avvalgi 2333-yili mazkur kunda Tangun Kachoson mamlakatiga asos solgan deb hisoblanadi; 9-oktabr - Xangil kuni. 1446-yil 9-oktabrda vana Sedjona buyrug‘iga asosan xangil Koreya milliy alfabiti kuchga kirgan.



3-rasm. *Seuldagi Kyonbokkun saroyi*

Koreya Respublikasi urf odatlari: Janubiy Koreya konfutsiya ta’limotlarining merosxo‘ri sifatida mamlakatda yoshi ulug‘larga o‘zgacha hurmat va munosabatda bo‘lishadi. Bu odat mamlakatning deyarli barcha hududlarida namoyon bo‘ladi. Hattoki, koreyslar kattalar bilan salomlashganda yoki minnatdorchilik bildirish chog‘ida ta’zim qilish odatiy hol. Kattalarga bo‘lgan hurmati aynan qay darajada bukilib ta’zim qilishi bilan o‘lchanadi. Koreys xalqining yana bir o‘ziga xos urf odatlaridan biri bu tug‘ilgan kundir, ya’ni ular 2 xil bo‘lib, birinchidan go‘dak tug‘ilishi bilan Ona qornida rivojlangan davri inobatga olinib 1 yosh qo‘shiladi va har yangi yil kelishi bilan yana bir yosh qo‘shib hisoblanadi.

Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) BMT, JST, OECD, APEC kabi tashkilotlar a’zosi. Bugungi kunda Koreya Respublikasi qayta ishlash sohasi bilan g‘ururlansa bo‘ladi, chunki tashqi savdo aylanmasi 1.084 mlrd AQSh dollarini tashkil etib undan eksport – 558,8 mlrd AQSh dollari, asosiy hamkorlari: XXR (20,1%), AQSh (17,9%), Gonkong (5,2%), Tayvan (4,3%). Importi – 525,2 mlrd. AQSh dollari, hamkorlari: Yaponiya (20,5%), AQSh (14,2%), XXR (11%), Saudiya Arabistoni (5,1%) kabi davlatlardir. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakat jahonda 12- o‘rinni egallaydi. Jon boshiga YAIM hajmi 35 000 AQSH dollarga yetadi. Hozirgi kunda Koreya Respublikasi iqtisodiyoti kuchli o‘shida bo‘lib, mamlakat “Katta Yigirmatalik” safida turibdi (4-rasm).

O‘zbekiston va Janubiy Koreya strategik sherikdir. Shavkat Mirziyoev va Mun Chje Inning do‘stligi va siyosiy irodasi esa O‘zbekiston-Koreya hamkorligiga yangi sur‘at bag‘ishlashga kuchli rag‘bat bo‘ldi.

Davlat rahbarlari so‘ngi yillar davomida to‘rt bor uchrashdi. Dastlab, 2017-yil oktabr oyida Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida davlat tashrifi bilan bo‘ldi. 2019-yil aprel oyida Prezident Mun Chje Inning O‘zbekistonga javob tashrifi bo‘lib o‘tdi, uning doirasida Alohida strategik sheriklik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya qabul qilindi. 2021-yil yanvar oyidagi “ONLAYN” sammitida esa yetakchilar o‘zaro aloqalarni yanada faollashtirish

bo'yicha qator yangi va dolzarb tashabbuslarni ilgari surdilar. Eng so'ngi muloqat telefon orqali 21.11.2023 yilda bo'lib o'tdi.



4-rasm. *Seul shahrining tundagi ko'rinishi.*

Mamlakatimizda Koreya Eksimbanki hamda Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik fondi (EDCF), xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish fondini (EDPF) bilan sermahsul sheriklik kengayib bormoqda.

O'zbekiston Koreyaning raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, "aqlli shaharlar", outsorsing, aloqaning yangi avlodi va internet-texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan o'z amaliyotida foydalanishdan manfaatdor.

Mamlakatlarimiz sog'liqni saqlash, maktabgacha va oliy ta'lim sohalarida jiddiy hamkorlik qilmoqda. Tibbiyotda amalga oshirilgan ilk yirik qo'shma loyiha natijasida o'tgan yildan buyon Toshkent shahrida Bolalar ko'p tarmoqli klinikasi faoliyat yuritmoqda.

Koreya ta'lim modeli dunyodagi eng namunali tajribalardan biridir. Aynan shu bois yurtimiz maktabgacha ta'lim tizimi Koreyadagi hamkorlarning ilg'or tajribasi va bilimlari asosida to'liq isloh qilindi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik keng ko'lamni kasb etgan. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan Janubiy Koreya investitsiyasi hajmi 7 mlrd AQSh dollaridan ortdi. Mamlakatimizda Janubiy Koreya investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan 461 ta korxona, shu jumladan 386 ta qo'shma korxona va chet el kapitali yuz foiz bo'lgan 75 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Bu korxonalar neft va gaz, neft-kimyo va kimyo, mashinasozlik, elektr texnikasi va to'qimachilik, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, transport, logistika va turizm sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. O'zbekiston. -T.: 2021.

2. Атлас. Экономическая и социальная география мира. -М.: 2006.
3. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. ma'sul muharrir Hazratqulov A. –T.: Sharq, 2007.
4. Максаковский В.П. Физическая и экономическая география мира. Учебник, М.: Айрис-Пресс, 2010.
5. Safarova N.I, Komilova N., Islomov I.N, Karakulov N.M. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. O'quv qo'llanma, -T.: Media, 2021.
6. Safarov U.X., Karakulov N.M. "Mamlakatshunoslik" darslik - «Zuxra baraka biznes» bosmaxonasi, T.: 2022. 267 bet.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz;
2. www.nuu.uz
3. <https://www.samsung.com>
4. <https://www.worldbank.org/en>